

**MILLIY RASSOMCHILIK VA DIZAYN INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.38/09.07.2020.San.119.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOLTABOYEV AZIZBEK XASANBOY O‘G‘LI

**TALABALARNI O‘QUV JARAYONIDA KASBIY-PEDAGOGIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(“Qalamtasvir” fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tasviriy san’at)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

UDK: 371.126:741 (07)

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li

Talabalarni o'quv jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish
texnologiyasi ("Qalamtasvir" fani misolida)3

Болтабоев Азизбек Хасанбой угли

Технология формирования профессионально-педагогических компетенций
студентов в образовательном процессе (на примере предмета
«Рисунок»).....22

Boltaboyev Azizbek Khasanboy ugli

Technology for developing students' professional and pedagogical competencies in
the educational process (using the example of the subject "Drawing").....

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....

**MILLIY RASSOMCHILIK VA DIZAYN INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.38/09.07.2020.San.119.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOLTABOYEV AZIZBEK XASANBOY O‘G‘LI

**TALABALARNI O‘QUV JARAYONIDA KASBIY-PEDAGOGIK
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI
(“Qalamtasvir” o‘quv fani misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Tasviriy san’at)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped 4096 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdirasulov Sunatillo Fayzullayevich
Pedagogika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Bulatov Saidaxbor Sobitovich
Pedagogika fanlari doktori, professor

Xadjimetov Behzod Baxadirovich
San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Milliy rassomchilik va dizayn instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.38/09.07.2020.san.119.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "____" _____ kun soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent sh., Mironshoh ko'chasi, 123, Tel.:(+99871) 255-18-92; faks: (+99871) 255-88-06; e-mail: info@mrdi.uz).

Dissertatsiya bilan Milliy rassomchilik va dizayn institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100084, Toshkent sh., Mironshoh ko'chasi, 123, Tel.:(+99871) 255-18-92; faks: (+99871) 255-88-06; e-mail: info@mrdi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "____" _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

Akilova Kamola Boltabayevna
Ilmiy darajalar beruvchi
Bir martalik ilmiy kengash raisi,
San'atshunoslik fanlari doktori, professor

Nishonova Kamola Solijon qizi
Ilmiy darajalar beruvchi
Bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
San'atshunoslik fanlari doktori (PhD) dotsent

Ziyayev Abdumannob Abduraximovich
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
Arxitektura fanlari doktori, professor, yetakchi ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asosida, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish tajribalaridan foydalanishga katta ahamiyat qaratilmoqda. 2006-yilda YuNESKO tomonidan qabul qilingan "Badiiy ta'limning yo'l xaritasi", shuningdek, 2010-yilda qabul qilingan "Seul kun tartibi"da tasviriy san'at vositasida badiiy-estetik ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ta'minlash, ta'lim jarayoniga badiiy-madaniy dihalalkan amaliyotga tadbiiq etish masalalari eng dolzarb muammolardan biri ekanligi ta'kidlangan.

Dunyoda tasviriy san'at o'qitish metodikasi sohasidagi tadqiqotlarning alohida yo'nalishi tasviriy san'at ta'limi mazmunini milliy, ma'naviy-madaniy va tarixiy qadriyatlar asosida takomillashtirishga qaratilmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini xalqaro malaka talablari asosida kasbiy tayyorlash, tasviriy san'at ta'limi sifatini xalqaro darajaga ko'tarish, talabalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan, barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblangan – qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Qalamtasvir ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or innovatsion texnologiyalarni takomillashtirishni taqazo etadi.

Respublikamizda xorijiy tajribalarni maqsadli o'rganish natijasida tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir fanini o'qitish mazmuni va metodikasini takomillashtirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari, axborot-metodik imkoniyatlarini kengaytitishga xizmat qilmoqda. "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarorida "O'qitishning zamonaviy shakl va uslublari, samarali pedagogik texnologiyalar, elektron axborot resurslaridan keng foydalangan holda ta'lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta'minlash" ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi¹. Shunga ko'ra, kompetentli yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish, talabalarning kasbiy-pedagogik va badiiy-estetik qobiliyatlarini rivojlantirish shart-sharoitini ilmiy tahlil qilish va ilmiy jihatdan asoslash dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – T.: Qonyn hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2020 yil., 07/20/4688/0475 – son.

muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4623-son, 2020-yil 21-apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ – 4688 – sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish muammolari N.A.Muslimov, N.N.Azizxodjayeva, R.G.Isyanov, Sh.Q.Mardonov, B.X.Rahimov, K.D.Risqulova, N.M.Egamberdiyeva, O.A.Qo'ysinov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tasviriy san'atni o'qitish metodikasida qalamtasvir fani vositasida talabalarni badiiy-estetik tarbiyalash, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, uni yaxlit-mazmunli, o'quv-bilish, axborot olish va amaliy faoliyatli jihatlari, kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlash muammolariga oid ilmiy tadqiqotlar S.F.Abdirasilov, S.F.Abdullaev, S.S.Azimov, A.A.Amanullayev, B.B.Baymetov, A.A.Berikbaev, S.S.Bulatov, K.M.Gulyamov, B.I.Kamolov, U.N.Nurtayev, B.N.Oripov, N.Oydinov, A.P.Sulaymonov, N.X.Tolipov, A.Turdaliyev, R.Xayrov, R.Xasanov, N.I.Yuldashevalar kabi olimlar tomonidan olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlari V.I.Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Dolgix, S.N.Doroshenko, A.M.Pavlova, A.K.Markova, M.F.Rudzik, E.E.Semyanok, V.A.Slastenin, Y.G.Tatur, A.V.Tutolmin, A.V.Xutorskiy, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya va boshqalar tomonidan bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish, ularning pedagogik mahorati, ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga oid muammolar tadqiq etilgan.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan A.Serbati, R.Boyasis, G.Kulanthaviel, S.Widdet, Y.Huqin, S.Hollyford, M.Andevski, R.Arnheim, E.Eisner, M.Fisher, O.Gajick, A.Kelly, I.Korac, J.Zimmerman tadqiqotlarida kasbiy salohiyatini rivojlantirish, kasbiy kompetentlik masalalari, kasbiy-pedagogik yetuklik muammolari, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish, kasbiy kompetentli funktsional o'qitishni integrativ mazmundagi bilimlar asosida tashkil etish masalalari o'z aksini topgan.

Biroq, nomlari keltirilgan olim va pedagoglarining tadqiqotlarida talabalarni

qalamtasvir mashg'ulotlarida badiiy-estetik tarbiyalash, ularning kasbiy-ijodiy mahoratini o'stirishda shaxs rivojlanishining ichki ehtiyojlari, psixologik xususiyatlarini inobatga olish, zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berishda o'tmish madaniy meros namunalaridan foydalanishning pedagogik asoslari e'tirof etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmun-mohiyatini ochib berish orqali mazkur jarayon tuzilmasi va komponentlarini aniqlashtirish;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish omillari va shart-sharoitlarini yoritib berish;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

qalamtasvir asosida talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishning loyihaviy ta'limga asoslangan texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni tanlab olinib, tajriba-sinov ishlarida Andijon davlat pedagogika instituti, Farg'ona davlat universiteti hamda Qarshi davlat universitetlarida tasviriy san'at va muhandislik grafikasi yo'nalishining 300 nafar talabalari respondent sifatida ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik, o'quv-metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish; suhbat, kuzatish, anketa, test, loyihalash, modellashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba-sinov; psixodiagnostika, tadqiqot natijalarini matematik-statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda yaratuvchanlik, izlanuvchanlik va yangilikka intilish kabi integrativ shaxsiy xususiyatlarning ta'siri aniqlanib, ular motivatsion, kognitiv, faoliyatiy va innovatsion komponentlar asosida strukturaviy tarzda ifodalandi, mazkur komponentlarning pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, baholash va ularning reflektiv ko'nikmalar bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash orqali kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik shart-sharoitlarni modernizatsiyalash zarurati asoslab berildi;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda obyektiv (uzluksizlik, hamkorlik, innovatsionlik) va subyektiv (professionallik, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv faollik) omillar aniqlanib, ular mazkur jarayonning mazmunini belgilovchi

interfaol yondashuv (kreativlik, faollik) mezon va indikatorlariga muvofiq identifikatsiya qilindi, ushbu omillar asosida amaliy ta'limning produktiv darajasini baholash va kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni shakllantirishning samarali yo'llari asoslab berildi;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-funksional model takomillashtirilib, u pedagogik faoliyatda muammoli ta'lim, loyiha asosidagi yondashuv, kreativ texnologiyalar, shuningdek frontal va individual topshiriqlar integratsiyasiga asoslangan intensiv loyihalash jarayoni bilan uyg'unlashtirildi, mazkur modelda qayta aloqa (feedback) darajasining validligini hisobga olish orqali kompetensiyani shakllantirishning samaradorligi oshirilishi aniqlandi;

bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi, "Qalamtasvir" fani doirasida xomaki rasm chizish faoliyatini prognozlash, transformatsion va kreativ funksiyalarini mustaqil izlanish hamda amaliy faoliyat bilan ichki integratsiyalashuvini ta'minlovchi mantiqiy topshiriqlarni tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda joriy etish orqali takomillashtirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qalamtasvir asarlarini tanlash, turkumlashtirish va taqdim etishning didaktik tasnifi takomillashtirilgan;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir metodik yondashuvlar, tamoyil va mezonlar aniqlashtirilgan;

"Qalamtasvir" nomli o'quv qo'llanma chop etilgan;

qalamtasvir ta'limi jarayonida foydalanishga mo'ljallangan innovatsion va loyihaviy o'qitish texnologiyalarining modifikatsion variantlari takomillashtirilgan;

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida asoslanganligi, o'quv amaliyotida talabalarga qalamtasvirni o'rgatish texnologiyalariga oid olimlarining qarashlari, nazariy jihatdan mukammal xulosalari asos qilib olinganligi, bu esa ulardan ilmiy-metodik xulosa chiqarishga imkon berganligi, qolaversa, tadqiqot xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlarining aniqlanganligi, qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning konseptual asoslari va innovatsion jihatlarini yoritib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda qalamtasvirni o'qitishga oid materiallarni tanlash, tasniflash va taqdim etishning pedagogik mexanizmi, qalamtasvir fanini o'qitish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan tasvirlash texnologiyasining takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talabalarni o'quv jarayonida kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning integrativ ta'siri (yaratuvchanlik, izlanuvchanlik, yangilikka intilish) va tarkibiy tuzilmasi motivatsion, kognitiv, faoliyatli, innovatsion komponentlari pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish, baholash hamda refleksiv ko'nikmalar bilan aloqadorligining didaktik shart-sharoitlarni modernizatsiyalashga ustivorlik berish asosida aniqlashtirishga oid amaliy taklif va ilmiy tavsiyalar "Qalamtasvir" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'i). Natijada, tasviriy san'at ta'lim yo'nalishi talabalarining xomaki rasm chizish texnikasi, ranglarni his qilish, kreativligi va fazoviy tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Tashxislash tizimi klassik, statistik o'lchov usullarini integrativ muvofiqlashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligi rivojlanganligini nazorat qilish va baholashga oid takliflar asosida "Yoshlar bo'sa hunarli – hayot bo'lar zavqli" mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatini boshqa institutlarini qo'llab quvatlash jamoat fondining 2022-yil 25-noyabrdagi 73-08/97-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligi rivojlanganligini o'quv amaliyotida xomaki tasvirni o'rgatish jarayonini uzluksiz nazorat qilish texnologiyasi asosida o'quv jarayoni samaradorligi oshgan.

bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirishda xomaki rasm chizish texnikasi, ijodkorlik, intellektuallik komponentlarini qamrab olgan pedagogik qobiliyatlar professiogrammasini takomillashtirishga oid amaliy taklif va ilmiy tavsiyalardan "Qalamtasvir" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 8-oktabrdagi 11-05-5737/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, qalamtasvir asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy-metodik jihatini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, shu jumladan, 4 xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi

tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika, 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 155 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil etilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi va amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, nazariy va amaliy ahamiyati, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, innovatsion yondashuvlar asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish pedagogik zarurat ekanligi, pedagogik-psixologik aspektlari, o'ziga xos xususiyatlari, kasbiy-pedagogik va kasbiy-ijodkorlikni samarali shakllantirishni ta'minlovchi nazariy asoslangan pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.

O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limning yangi paradigmalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini yuksak estetik bilim va badiiy did egalari etib tarbiyalash, ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog xodimlari nufuzini oshirish, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda

Tadqiqotlar jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish muammosining turli jihatlarini pedagog, psixolog, metodist, lingvist olimlarning tadqiqot ishlarida tadqiq etilganligi aniqlandi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda tasviriy san'at o'qitish metodikasiga doir bir qator ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, G.N.Eshanova diniy qadriyatlar va tasviriy san'at integratsiyasining shaxs ma'naviyatiga ta'siri, S.A.Haydarov tasviriy san'at asarlari vositasida tarix darslari samaradorligini oshirish, N.T.Suyarov o'z tadqiqotida milliy hududiy materiallar vositasida tasviriy san'at ta'limi mazmunini takomillashtirish, S.S.Azimov tasviriy san'atni kompyuter texnologiyalar asosida o'qitishni muammaolarini tadqiq qilgan. Shuningdek, uzluksiz ta'limda tasviriy san'at o'qitish metodikasi bo'yicha ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, B.O'.Qo'chqorov o'qituvchilarda tabiatga estetik munosabatni tasviriy san'at vositasida shakllantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Mazkur dissertatsiyalar mazmunidan bugungi kunda

tasviriy san'at ta'limida keng foydalanish mumkin.

Tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi taniqli pedagog olimlar S.P.Lomov va S.A.Amanjolov tomonidan tadqiq etilgan. Olimlarning fikricha, tasviriy san'at ta'lim-tarbiya ishlarida qalamtasvir bo'yicha yuqori samaradorlikka erishish talabalarning individual qobiliyatlari, layoqatlarini e'tiborga olib tabaqalashtirilgan topshiriqlar berishni taqozo etadi.

Qalamtasvir darslarida talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlantirish masasalasi esa juda kam tadqiq etilgan mavzulardan hisoblanadi. Yirik metodist olim B.Boymetovning oliy o'quv yurtlarida qalamtasvirni o'qitish dastur va darsliklar mazmunidagi uzluksizlik masalasiga asosiy e'tibor qaratgan bo'lsa, N.X.Abdullayev, A.Kalonov, D.N.Azizov, Sh.R.Jumaniyozovlar chizmatasvirni o'qitishda natura va xotiradan bajariladigan ishlarning afzalliklari haqida fikr yuritadilar. B.Tojiyev qalamtasvir bo'lajak pedagog-rassomning kasbiy kompetensiyaning bir qismi sifatida qaraydi va uni tasviriy san'at o'qitish metodikasiga doir tadqiqotida xomaki rasm chizishga o'rgatuvchi mashqlar tizimi ishlab chiqilgan. Xomaki rasm chizishning muayyan maqsadi kuzatish natijasini bir zumda qog'ozga aks ettirish sifatida qaraladi.

Kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallar beribgina qolmay, odam zotining eng muhim jihatlarini, ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish va tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan bosh va asosiy vosita ekanligi isbotlanmoqda.

Y.M.Tyutyunova bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari, tasviriy san'at sohasi kasbini egallayotgan talabalar tabiat bilan doimiy aloqada bo'lishini inobatga olib, ularga ko'rish (ko'z), tegish orqali (qo'l) idrok etishni va his qilishni (aql) o'rgatish muhimligini ta'kidlaydi.

O'quvchilar tasviriy san'at mashg'ulotlarida narsalarni ko'radilar, uning katta-kichikligini, shakli va undagi xunuk yoki chiroyli elementlarni aniqlaydilar, narsa shaklini idrok etib, rang va tusini o'rganadi. Narsa shaklini idrok etish bilan birga, uning tasvirini yaratish tahlilini amalga oshiradi, ong faoliyati asosida naturani tasvirga aylantirib, daftar yuziga joylashtirish bo'yicha hisob-kitob qiladi. Shundan so'ng, natura tasviri daftar yuzasiga tushiriladi. Bu mashg'ulotlar davomida diqqat, idrok, xotira, tasavvur, did, emotsiya rivojlanib, xomaki rasm chizish malakasi ortadi. Chunki bu mashg'ulotlarda o'quvchi naturani kuzatadi va ko'radi, uni ong faoliyatida tahlil qiladi, rang-tuslarini buyumlar ichidan topib, uni qog'ozga tushiradi.

Dissertatsiyada adabiyotlarni tahlil qilish asosida, olimlarning fikrlarini hisobga olgan holda shuni aytishimiz mumkinki, talabalarning kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishning asosiy uslubiy tamoyili shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga qaratilishi, qalamtasvirni o'qitishda texnologik yondashuv doirasida virtual dasturlar va modernizasiyalashgan didaktik ta'minot vositalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka olib keladi.

Xomaki rasmlar haqida gapirganda ularning vazifalari, maqsad va yo'nalishlarini to'g'ri aniqlab olishni taqozo etiladi. Ko'pincha "xomaki" tushunchasini rasm ustida ishlashning birinchi bosqichi, shaklning chiziqli-

konstruktiv qurilishi bilan aralashtirib yuboriladi. Bu albatta to'g'ri emas. Xomaki tasvir deb, "qisqa vaqt ichida bajariladigan va chizilayotgan obyekt shaklining asosiy nisbatlari hamda o'ziga xos xarakterlarini tasvirlab beruvchi surat"ga aytiladi. Xomaki tasvirda mayda detallar bo'lmaydi, faqat asosiy, muhim detallar ko'rsatiladi. Xomaki rasmlarni chizish mashqlari xotira va tasavvurdan rasm ishlashda eng asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Xomaki rasm ma'lum vaqt oralig'ida kuzatilayotgan natura haqida to'liq tasavvur berishni maqsad qilib qo'yadi. Xomaki rasm o'quvchini tez fikrlash, tasvirlashning eng ishonchli va mantiqiy vositalarini qidirib topishga o'rgatadi, kuzatuvchanligini rivojlantiradi. Talabalar xomaki tasvirlarni chizish orqali predmetlarning umumiy nisbatlarini qurish va asosiy harakatlarini ochib berish malakalarini oshirishga, uning tuzilishini butun bir shaklga nisbatan yaxlit ko'rishga, bir vaqtning o'zida qismlarini o'zaro taqqoslashga o'rganishadi. Bularning hammasi yaxlit ko'rishni ta'minlaydi. Chizish uchun eng yaxshi joyni tanlab olish uchun turli nuqtalardan bir necha xomaki tasvirlar chiziladi. Shu bilan birga, obyektning qaysi nuqtadan tasvirlashini ham o'ylab olinadi. Bular tasvirlanayotgan obyektning kompozitsiya jihatidan mazmunli chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu bobda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining qalamtasvir bo'yicha kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi. Xususan, qalamtasvir predmetini bevosita mamlakat istiqbol rivojini ta'minlovchi omil sifatida baholash, unda sof pedagogik omillar qatorida, ijtimoiy infrastrukturalar yaratish qalamtasvirni o'qitish metodikasini takomillashtirishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalar vositasida qalamtasvirni o'qitish metodikasini takomillashtirishga e'tiborni qaratish orqali qalamtasvir ta'limi mazmuni takomillashib boradi.

Xomaki rasmlar chizishga o'rgatish jarayoni Uyg'onish davridagi birinchi akademiyaning paydo bo'lishi bilan bog'liq tarzda, qalamtasvir fanining maxsus fan sifatida rivojlanishiga asos vazifasini bajarganligi ilmiy asoslab berildi. Uyg'onish davrida rangtasvir va qalamtasvirga asos solgan rassom-olimlar Albrect Dyurer hamda Martin Shon ijodi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

XVI asr oxirida tashkil topgan dastlabki san'at akademiyalari ichida eng mashhuri aka-uka Karrachilarning "Boloniya akademiyasi" hisoblangan. Aka-uka Karrachilar "rasm chizish vizual savodxonlikning asosi" deb hisoblagan holda xomaki rasmlar chizishni o'rgatish metodikasiga asos solgan. Ularning nazariy qarashlari quyidagilardan iborat bo'lgan: "rassom-pedagogning ijodiy foliyatini jadallashtirish, egallagan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish, bunda bilimlarning tizimliliigi, ketma-ketligi, mantiqiyliigi, intiutsiya (ichki sezgi) va intuitiv fikrlash, aqlga tayanish, erkin fikrlash, aqliy his-tuyg'ularni rivojlantirish, bu jarayonda taqqoslash, kuzatish metodlaridan samarali foydalanish". Bugungi kunda ham talabalar uzoq muddatga mo'ljallangan o'quv topshiriqlarini bajara turib, antik davrga mansub gips bosh niqoblarini qoramalar vositasida chizishlari buning isbotidir. Qalamda tasvirlash kompozitsiya bilan chambarchas bog'liq holda olib borishni talab etadi. Ustoz rassom shogirdiga xomaki rasm chizish,

keyin uni materialda ishlash hamda tayyorlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarni sabr bardosh va talabchanlik bilan o'rgatadi.

S.A.Gavrilyachenko fikriga ko'ra: "Qalamtasvir nafaqat tasviriy san'at turlaridan biri, balki butun realistik tasviriy san'atning asosi, badiiy mahorat kaliti bo'lib, u rassomga tasviriy g'oyalarni taqdim etishda cheksiz imkoniyatlar va erkinlik beradi".

Pedagog olimlar tomondan qobiliyat atamasiga quyidagicha ta'rif beriladi:

qobiliyatlar – shaxsning alohida ruhiy xususiyati bo'lib, qandaydir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishga, inson tomonidan avval ishlab chiqilgan va biror natijaga olib kelmaydigan bilimlar, mahorat va ko'nikmaga aloqador bo'lgan sifatlar, harakatlar orqali boshqariladigan faoliyatlarning ruhiy jarayon, aniq bir faoliyat turini yuqori darajada bajarishga xizmat qiladigan shaxs xususiyati.

Demak, har qanday qobiliyat qandaydir faoliyat natijasi bo'lib, faoliyat talablariga mos keladigan va o'ziga kerakli sifat va xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Qobiliyatlar umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo'linadi.

Psixologiyada qobiliyatlarni birlamchi va ikkilamchi (asosiy va to'ldiruvchi) bo'laklarga bo'lib qabul qilinadi.

1. **Asosiy badiiy qobiliyatlar tarkibiga:** a) *badiiy-ijodiy tasavvur* – borliqdagi voqea-hodisalarning o'ziga xos va tabiiyroq chiqishini taminlaydigan badiiy obrazni topish va o'ziga xos kompozitsiya tuza olish; b) *ko'rish xotirasining o'ziga xosligi* – rassom ongida yorqin obrazlar paydo bo'lishi va uni qog'oz yoki xolstga mohirona ko'chira bilish; v) *tasavvur qilingan va tasvirlanayotgan tasvirga nisbatan his-hayajon* – ilhom bilan yondashish (asosan ijodkorning ichki sezgisining rivojlanganligi); g) *ongida tug'ilgan ijodiy fikr* – tasavvurni amalda qo'llab, tasviray olishni kiritish mumkin.


2. **Ijodiy qobiliyatlarning yordamchi xossalari:** a) *ko'z orqali sezish* – kuzatilayotgan buyum yuzasi sirtining yumshoqligi yoki qattiqligi, silliq yoki g'adir budurligini his qilish va amalda ifodalay olish; b) *bolaning qo'l harakatlari bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar* – tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'zlashtirish kerak bo'lgan yangi texnik mashqlarni tez va aniq bajarishni ta'minlaydigan mashqlar mansubdir.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish**" deb nomlangan ikkinchi bobida qalamtasvirni o'rgatish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash vositasi sifatida, zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanib talabalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, modeli va texnologiyalari yoritilgan.

Tadqiqot doirasida qalamtasvirni o'rgatishga oid adabiyotlar bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish vositasi sifatida tanlandi. Ana shu sababli mazkur konsepsiyani pedagogik, shuningdek, metodik jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq, degan xulosaga kelindi. Qalamtasvir muhim bilim manbai bo'lib qolmasdan, talabalarning bo'lg'usi pedagogik faoliyatga barqaror motivatsiyasi va qiziqishini shakllantirish vositasi hamdir. Barcha tasviriy san'at turlarining asosi hisoblangan – qalamtasvir yoshlarni barkamol etib va badiiy-estetik tarbiyalashda alohida ahamiyat kasb

etadi.

Demak, maktab o'quvchilari va talabalarga qalamtasvir fanini o'rgatish jarayonida tasviriy san'at asarlaridan samarali foydalanishning istiqboli yuqori, degan xulosaga kelish mumkin.





NATIJA: kasbiy-ijodiy kompetensiyasi rivojlangan talaba

1-rasm. Talabalarning o‘quv jarayonida kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish moduli

Tasviriy san‘at asarlari tadqiqot hamda tahlil qilish uchun keng qamrovli materiallarni o‘z ichiga oladi, tasvirlanayotgan davr insonlari hayotining turli qirralari, shuningdek, butun jamiyat hayoti, uning moddiy va ma‘naviy hayot tarzini kashf etishga yordam beradi. Rassomlar tomonidan yaratilgan asarlarda tarixiy voqealar yoki ko‘hna asaru-atiqalar erkin yoki biror manfaat nuqtayi nazaridan tasvirlanishi bilan bog‘liq ko‘plab o‘zgarishlarga uchraydi. Shuning uchun rassom o‘z asarini yaratishda turli ma‘lumotlar bilan ishlash va tarixiy asarlarning umumiy mazmunidan haqiqatni ajratib olishning umum e‘tirof etilgan usullariga rioya qilishi, shuningdek, tasviriy san‘at tarixi va tasviriy san‘at o‘qitish metodikasiga oid bilimlarni obyektivlashtirishga intilishi kerak.

Qalamtasvir fanini metodik tashkil etishga bag‘ishlangan nazariy manbalarni tahlil etish natijasida, bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirish, ularda kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida qalamtasvir ta‘limi mazmunini mamlakatimizdagi asori-atiqalar vositasida takomillashtirish kerakligi aniqlandi. Bu jarayonda ta‘lim va tarbiya integratsiyasida zamonaviy ta‘lim texnologiyalari yutuqlaridan samarali foydalanish, qalamtasvir ta‘limi sifatini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion metod va shakllarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etishiga e‘tibor qaratildi.

Talabalarning kasbiy-pedagogik fanlarga o‘quv motivatsiyasining shakllanganligi hamda kasbiy-pedagogik faoliyatga yo‘nalganligi, shuningdek, innovatsion nazorat shakllari vositasida kasbiy-pedagogik kompetentlik darajalari integral tahlil yondashuvi asosida tashxis qilindi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun kasbiy va shaxsiy sifatlar (tashabbuskorlik, hamkorlik, o‘zini-o‘zi rivojlantirish) va psixologik xususiyatlar (intuitsiya, kuzatuvchanlik, xotira)ni diagnostik darajalashning mohiyati ochib berilgan.

“Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish va ularning natijalari” deb nomlangan uchinchi bobda tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi, o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari va ularning matematik-statistik tahlili keltirilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy-pedagogik kompetentligini baholash ishlarini tashkil etish va uni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan.

Bizning o‘quv jarayonida bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikamiz 2022–2024-yillarning kuz-bahorida amalga oshirildi va yozgi plener amaliyotida tajriba-sinov ishlaridan

o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari Andijon davlat pedagogika instituti, Farg‘ona davlat universiteti hamda Qarshi davlat universitetida o‘kazildi.

Tajriba davomida biz turli xil ish shakllarini qidirdik va sinab ko‘rildi:

1. Individual-tabaqalashtirilgan yondoshuv. Biz talabalarga taklif qilayotgan har bir akademik vazifani bajarish jarayonida talabalarni badiiy-pedagogik qobiliyatlarini rivojlanish darajalariga qarab: yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratib oldik. Bunda, har uch guruhda ham bir xil topshiriq berilsa, past ko‘rsatkichli talabalarning qobiliyatlari rivojlanmasligi aniqlandi. Shu bois, akademik vazifalar berilganda duch kelinadigan qiyinchiliklar optimallashtirildi. Masalan, plener dasturida vazifa – me‘moriy motivning qoralamasi. Bir talabaga murakkab me‘moriy ansamblni, boshqa bir talabaga oddiy me‘moriy obyektни tasvirlash topshirig‘i berildi.

2. Pedagogik sharoit. Naturani yorqin va aniq idrok etish va uni tekislikka tez o‘tkazish uchun talabalarga ta‘lim jarayonining maqsadini aniq tushuntirib berildi. Bu esa talabalarda tekislikda shaklni perspektivali tasvirlashning asosiy qoidalarini oldindan tushunib olishiga asos bo‘ldi.

3. Qalamtasvir vositasida eng muhim ma‘lumotlarni yetkazish. Talabalar ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda real qalamtasvir qoidalari va qonuniyatlari, murakkab shakl tasvirining xususiyatlari bilan tanishtirib borildi. Talabalar hayvonlar, qushlar va odamlarning plastik anatomiyasi bilan tanishish jarayonida, ularning harakatini ham o‘rganib bordilar.

Oliy ta‘lim muassasalari tasviriy san‘at ta‘limi yo‘nalishidagi talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan monitoring natijalari asosida ularning kasbiy-pedagogik kompetentligini baholash uchta darajaga bo‘lib aniqlandi. Nazorat 100 ballik tizim asosida amalga oshirildi. Shuningdek, III “yuqori” darajaga 76 va undan yuqori ball to‘plaganlar, II “o‘rta” darajaga 51 dan 71 ballgacha to‘plaganlar, I “past” darajaga 26 dan 50 balgacha to‘plaganlar kiritildi.

Ushbu darajalarga muvofiq har bir mezon pozitsiyasini ko‘rib chiqamiz:

2-jadval

O‘quv amaliyotida xomaki tasvirlarni bajarish bo‘yicha aniqlovchi tajriba natijalari

Baholash mezonlari	% nisbatda daraja ko‘rsatkichlari					
	1 bosqich			2 bosqich		
	yuqori	o‘rtacha	past	yuqori	o‘rtacha	past
Tasvirlanayotgan narsaning xarakteri va nisbatlarini yetkazish	35	55	10	45	48	7
Kompozitsion yechimi	26	42	32	32	48	20
Tasvirning ixchamligi	10	55	35	12	56	32
Ifodaviylik	19	41	40	18	49	33
Turli materiallarni qo‘llash texnikasini bilish darajasi	33	52	15	42	48	10
O‘quv amaliyoti dasturni o‘zlashtirishi	18	34	48	24	48	28

Yuqori darajaga borliqni his qila oladigan, tahlil qilish ko‘nikmasiga egaligi bois o‘quv materialini boshqalarga qaraganda tez o‘zlashtirish qobiliyatiga ega talabalar kiritildi. Bu guruhga kasbiy-pedagogik kompetentlik, qoralamalarni

ijodiy yondashgan holda bajarishga motivatsiyasi yuqori bo'lgan talabalar biriktirildi. Ular ijodiy faoliyatida zamonaviy tasviriy san'at turlaridan foydalana olishi, ta'limning barcha shakllarida o'zining kasbiy-pedagogik kompetensiyalarini qo'llay olishi ma'lum bo'ldi. Bunday talabalar ixtisoslashtirilgan san'at kolleji, litseyi va maktablarini tugatgan talabalar hisoblanib, ular kuzatuvchanligi bilan boshqalardan farqlanishi ma'lum bo'ldi. Biroq, ular umumiy tarkibning atigi 5– 6% ni o'z ichiga oladi.

O'rtacha darajaga kiritilgan talabalar tasviriy san'atga oid bilimlarni egallash va ulardan foydalanib kompozitsiyalar yarata olishi, o'z fani bo'yicha dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun nazariy bilimlarga egaligi, amaliy faoliyatda mutaxassislik faniga oid bilimlardan o'rta darajada foydalana olishi mumkinligi aniqlandi. Biroq, ularning xomaki rasm chizishda ko'proq takrorlash mavjudligidan ular yordamga muhtojligi aniqlandi. Kasbiy-pedagogik kompetensiyalarining rivojlanish darajasi va tasvirlash mahoratini egallash darajasi birinchi guruhdan past. Bu darajadagi talabalarning maxsus bilimlarida bo'shliqlar mavjud va o'quv faoliyatida mustaqillikka ega emas. Bu talabalar asosiy sonining 60-63% ni tashkil qiladi.

Past darajaga ega bo'lgan talabalarda kasbiy tayyorgarligidagi bilimlar darajasining pastligi, bilimlarning tarqoqligi, qalamtasvir ishlariga qiziqishlarining mavjud emasligi va kasbiy-pedagogik kompetensiyaning rivojlanmaganligi ko'zga tashlandi. Bunday talabalar tasvirlash haqidagi nazariy bilimlarning zaruriy asoslarini bilishmasligi aniqlandi. Ular umumiy talabalar sonining 34-36% ni tashkil qiladi.

Tajriba-sinov ishini olib borish jarayonida talabalarda xomaki rasm ustida ishlash past darajada ekanligi ko'zga tashlandi. Tajriba-sinov guruhi talabalariga xomaki rasm chizishni o'rgatish jarayonini tashkil etish, tadqiqotimiz doirasida tashkil etilgan ijodiy tanlov, to'garak va ochiq havoda rasm chizish faoliyati orqali xomaki rasm chizishni o'rgatishga oid ko'nikma va malakalarning takomillashganligi kuzatildi.

3- jadval

Andijon davlat pedagogika institutining 1-kurs talabalari tomonidan dastlabki nazorat topshirig'i natijalari (shakllantiruvchi tajriba)

Mezonlar pozitsiyalari	Baho	"A" guruhi				"B" guruhi			
		NG 10 st.		TG 10 st.		NG 12 st.		TG 11 st.	
	Soni	%	soni	%	soni	%	soni	%	
1. Xarakterni va nisbatlarni o'tkazish	2	-	-	-	-	-	-	-	-
	3	6	60	3	30	5	42	4	36
	4	4	40	6	60	7	58	7	64
	5	-	-	1	10	-	-	-	-
	o'rtacha	3.4		3.8		3.6		3.6	
2. Kompozitsiya yechimi	2		-	-	-	-	-	-	-
	3	5	50	3	30	6	50	3	27
	4	4	40	5	50	5	42	7	64
	5	1	10	2	20	1	8	1	9
	o'rtacha	3.6		3.9		3.6		3.8	

3. Tasvirlarning ixchamligi	2	1	10	1	10	1	8	1	9
	3	5	50	2	20	5	42	4	36
	4	4	40	6	60	6	50	6	55
	5	-	-	1	10	-	-	-	-
	o'rtacha	3.3		3.7		3.4		3.5	
4. Ifodalilik	2	2	20	-	-	1	8	-	-
	3	4	40	5	50	6	50	5	45
	4	4	40	4	40	5	42	6	55
	5	-	-	1	10	-	-	-	-
	o'rtacha	3.2		3.6		3.3		3.5	
5. Qalamtasvir texnikasi va turli materiallarni uddalash darajasi	2	-	-	-	-	-	-	-	-
